

TEKNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Tog‘ayeva Ismigul Murodulla qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti
Texnologik ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Tel nomer: +998938634341
Email: abbosturayev9100@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnologiya fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari hamda ularning ta’limda qo‘llanilishi haqida fikr mulohazalar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *metod, usul, texnologiya, tafakkur, interfaol, metod, innovatsion pedagogik texnologiyalar, klaster, diagramma.*

Аннотация: *В статье рассматриваются возможности использования интерактивных методов в обучении технологиям и обсуждаются вопросы их применения в образовании.*

Ключевые слова: *метод, методика, технология, мышление, интерактивный, метод, инновационные педагогические технологии, кластер, диаграмма.*

Abstract: *This article presents the possibilities of using interactive methods in teaching technology and discusses their application in education.*

Keywords: *method, technique, technology, thinking, interactive, method, innovative pedagogical technologies, cluster, diagram.*

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish, mustaqil ijodiy tafakkurini o‘stirish, pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalardan keng va samarali foydalanishnigina emas, balki, mazkur jarayonni rejalashtiruvchisi, amalga oshiruvchisi va boshqaruvchisi bo‘lgan o‘qituvchining kasbiy saviyasi, kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalasiga chuqurroq yondashuvni talab etadi. Shu sababli mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma’lum nazariy bilimlarni o‘quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malaka hosil qilish, ma’naviy sifatlarni shakllantirish, o‘quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o‘qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi. Bu borada o‘qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo‘lgan ayrim pedagogik vositalar ta’kidlovchi savollar bunda o‘quvchining bergan savoliga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin.

“Metod” yunoncha metodos so‘z bo‘lib, “yo‘l”, tadbqiq qilish kabi ma’nolarni anglatadi. Ta’lim metodi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlaridir. O‘qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko‘rishida metodlar va metodik usullarni tanlashi – bu ularning o‘zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo‘yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o‘quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta’minlashga sharoit yaratiladi. To‘g‘ri qo‘llanilgan metodlar obyektiv voqelikka oid bilimlarni chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg‘ulotning ilmiy- nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o‘qitish metodlari ma’lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi.

Ta’lim metodlari o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy yo‘naltirish yo‘llarini anglatadi. O‘qitish metodlari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining qanday bo‘lishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda o‘quvchilar qanday ish harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Endilikda o‘qituvchi aktyor emas, balki rejisyor vazifasini bajaradi. Innovatsion metodlar o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo‘lidir. O‘qituvchi insoniyat tajribasida to‘plangan bilimlar bilan hali bu bilimlarga ega bo‘lmagan bolaning ongi o‘rtasida vositachilik rolini o‘ynaydi. Bola ijtimoiy-tarixiy tajribadagi barcha bilim boyliklarini ta’lim olmasdan, o‘qituvchisiz, mustaqil holda o‘zi tizimli tarzda o‘zlashtira olmaydi. O‘qituvchining eng katta xizmati o‘quv materialini o‘zlashtirishning muayyan yo‘li, usullarini belgilashda namoyon bo‘ladi. Dars jarayonining metodi o‘quv materialini bayon qilishga va uni bolalar yaxshi bilib olishga qaratilgan faoliyatning yo‘li, usulidir. Ta’lim jarayoni va natijalari o‘qituvchining o‘quvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi ish usulariga bog‘liqdir. Shu sababli doimo pedagogikada ta’lim metodlariga o‘qituvchining ish usullari va o‘quvchilarning bilish faoliyati usullari deb qaraladiki, bu usullarning har ikkalasi ham o‘quv vazifalarini bajarishga qaratilgandir.

Interfaol usul tarbiya nuqtai nazaridan, har bir kishini ruhiy, ilohiy tavsifini ko‘zda tutgan hoda, xalqaro miqyosdagi ta’lim – tarbiya yangiliklarni hamda ma’naviy manbalarimizdagi aks ettirilgan intellektual salohiyatimiz ko‘nikmalariga asoslanib komil farzand tarbiyalash demakdir. Ta’lim mazmunining interfaol metodlar bilan aloqasi. Shunday qilib, biz o‘qitish metodlarini tanlashni takomillashtirishning birinchi muhim shartini ularni tizimlashni, o‘quv jarayonini rejalashtirish muolajalari amaliyotida qo‘llash bilan bog‘liqlikni aniqlashtiradigan yaxlit yondashuvni tavsifladik. Pedagogikada an’anaviy metodlarni tanlash mezonlari katta miqdorda ishlab chiqilgan, keyingi yillarda didaktik olimlarning ishlarida ularning yigirmadan ortig‘i keltiriladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlari – ularning ta’lim va tarbiyani rivojlantirish masalarni yechishga yuqori yo‘nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo‘li bilan joriy etiladi, chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o‘zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir. Interfaol metodlarni tanlashning

navbatdagi mezonni ularning ta’lim mazmuni xususiyatiga mos kelishidir. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to’laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o’zlashtirishga imkon tug’diradi. Interfaol metodlarini tanlashning yana bir mezonni ularning o’quvchilar o’quv imkoniyatlariga to’liq mos kelishi, ya’ni samarali o’quv va o’quvchilar faoliyatining xususiyatini belgilaydi.

Texnologiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish.

Aytsang unutaman;

Ko’rsatsang, eslab qolaman; O’zim bajarsam, anglab yetaman.

Xitoy faylasufi Konfutsiy (mill.avvalgi 551-479 yy) aytib o’tgan edi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o’quvchilarni bilim olishga qiziqtirish jiddiy muammoga aylanib borayotganligi hech kimga sir emas. Texnologiya fani mashg’ulotlarida ham o’quvchilarni darsga qiziqtirish va kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida interfaol metodlardan atroflicha foydalaniladi. Quyida bir necha xillarini misol tariqasida keltiramiz.

Venn Diagrammasi.

Gazlamashunoslik bo’limida tabiiy va kimyoviy gazlamalarning bir-biriga o’xshaydigan va o’xshamaydigan xususiyatlarini taqqoslovchi vosita. Buning uchun ikki yoki undan ortiq doira quriladi. Doiralarning ikki tomoniga gazlamalarning nomlari yoziladi. Kesishuvchi doiralarga mos ravishda o’xshaydigan yoki o’xshamaydigan xossalari, qanday kiyim va boshqa uy-ro’zg’or buyumlari tikilishi mumkinligi yoziladi. Yangi yo’nalish o’qituvchining innovatsion faoliyati tushunchasi paydo bo’ladi. Texnologiya fanidan darslarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda grafikli organayzerlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o’quvchilarni darslarda faol ishtirok etishini, ta’lim mazmuniga oid o’rganilayotgan tushunchalarni, murakkablik darajalari turlicha bo’lgan mavzularni, fanlararo amalga oshirilayotgan aloqadorlik va o’zaro bog’liqlik o’rnatishni, tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash, topshiriqli muammolarni aniqlash, ularni hal etish va berilgan amaliy topshiriqlarni rejalashtirish, tafakkur qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Texnologiya fanidan darslarda grafikli organayzerlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo’lib, mavzuga oid ma’lumotlarni og’zaki ravishda o’zlashtirish ko’rsatkichi 10% bo’lgan sharoitda dars o’tish samarasiz bo’ladi. Darslar davomida o’quvchilarga o’quv materialini ko’rgazmali shaklda taqdim etish lozim. O’quv materialini ko’rgazmali taqdim etish orqali o’qitish samaradorligi natijaviyligiga erishish mumkin. Grafikli organayzerlardan “Tikuvchilik materialshunosligi” darslarida qo’llanilishini “Tabiiy tolalar” mavzusida ko’rib chiqamiz:

1. Tabiiy tola turlarini klasterda tasvirlang.

Klaster - (tutam, bog’lam) - axborot xaritasini tuzish yo’li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g’oyalarni yig’ish bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo’yicha yangi o’zaro bog’lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klaster interfaol metodi - ta’lim oluvchini mantiqiy fikrlashga, umumiy fikr doirasini kengaytirishga, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga asoslangan. Fikrlashning tarmoqlanishi pedagogik strategiya bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga ta’luqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va aniq ravishda ma’lum ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlanishlariga o‘rgatadi. Mazkur interfaol metod bir mavzuni chuqur o‘rganishdan avval ta’lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda ta’lim oluvchilarning ushbu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

«Venn» diagrammasini tuzish uchun ikkita kesishuvchi aylana chiziladi (agar mavzuning ikki qismi solishtirilayotgan bo‘lsa ikkita aylana, uchta qismi solishtirilayotgan bo‘lsa uchta kesishuvchi aylana chiziladi). Har bir aylanaga mavzuning alohida bir qismi haqidagi asosiy ma’lumotlar kiritiladi. Doiralarning kesishuvchi joyida, ikki yoki uch doiralardagi mavzular solishtiriladi va umumiy bo‘lgan ma’lumotlar ro‘yxati yoziladi. Paxta va zig‘ir tolalarini Venn diagrammasida taqqoslash.

“Venn” diagrammasining afzalliklari: grafik organayzer sifatida tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Uning yordamida o‘tilgan mavzu yana bir bor takrorlanib, o‘zlashtirilgan bilimlar talabalar yodida saqlanib qoladi. Uning yana bir afzalligi sifatida kam vaqt talab qilinishini aytib o‘tish mumkin. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

“Venn” diagrammasining kamchiligi: diagrammaning kamchiligi shundaki, belgilangan aylana ichiga katta sig‘imdagi ma’lumotni joylashtirishda qiyinchilik yuzaga keladi. Agar har bir keltirilgan ma’lumotning tartib raqami ko‘rsatilmasa, o‘xshash jihatlarni aylanalarning kesishgan qismida to‘liq yozish shart. Ajratilgan joy esa (aylanalarning kesishidan hosil bo‘lgan qismi) barcha ma’lumotlarni sig‘dirishi imkonini bermaydi.

Ta’lim jarayonida interfaol metod (strategiya, grafik organayzer)lar bilan ishlash talabalar tomonidan o‘quv axborotlarini tizimli, yaxlit holda o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Qolaversa, interfaol metodlar yordamida talabalar o‘quv axborotlari bilan ishlashda bilimlarni tahlil qilish, sintezlash, muhim tushunchalarni tizimlashtirish, ob‘ekt, jarayon, faoliyat, voqea, hodisalarning umumiy mohiyatini aniq ifodalash kabi ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kun ta’limida eng dolzarb bo‘lgan texnologiya fani darslarida interfaol usullarni qo‘llash o‘quvchilarda bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Shuningdek, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirib, kasbiy sifatlar hamda ma’naviy dunyoqarashni rivojlantiradi. Biz ya’ni o‘qituvchi, o‘quvchilar uchun fanga oid salohiyatimizni oshirishga, bilimimizni mustahkamlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhidova, O.N. Methods and tools used in the teaching of technology to children // ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), (2020), 957-960.
2. О.Н.Муhideва Компетентностный подход к развитию профессиональной деятельности учителя // Вестник науки и образования 97 (№ 19 (97).Часть 2), С 88-91
3. О.Н. Муhideва Электронное обучение в высшем образовании // Вестник магистратуры, 1-5 (100) 2020 С 43-44
4. Rasulova Z.D. (2014). On the spectrum of a three-particle model operator. Journal of Mathematical Sciences: Advances and Applications, 25, pp. 57-61.
5. Расулова З.Д. (2021). Технологии развития творческих качеств студентов. Наука и образования сегодня. 60:1, С. 34-37.
6. Ishmukhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.2004
7. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi.: Nasaf. 2000.
8. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). - T.: Moliya, 2003.
9. Ta'limning faol usullari. Uslubiy tavsiyalar. TVPQTMOI. T.2004.
10. To'raqulov E., Rahimov S. “Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim tarbiya haqida” T.: O'qituvchi, 1993.
11. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T., 1995 y.
12. M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., 2000 y.
13. N. Djamilova va O.U. Xasanboeva “Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi” T., 2009 y.